
SO'XLIK DEPUTAT MUROJAATI BOSH VAZIR O'RINBOSARI NAZORATIDA EKANLIGIDAN MAMNUN



So'xlik deputat murojaati Bosh vazir o'rinbosari nazoratida ekanligidan mamnun

So'x tumaniga kelgan Bosh vazir o'rinbosari Achilbay Ramatov mavjud muammolar, Prezident qarorining ijrosi bo'yicha o'rganishlar olib bordi.

Tumanda bo'lib o'tgan faollar yig'ilishida Bosh vazir o'rinbosari So'x tumanida suv muammosi o'z yechimini topmayotgani haqida gapirib, ijtimoiy tarmoq orqali deputat Subhonali Nishonovning qilingan murojaatiga alohida to'xtalib o'tdi.

Ushbu masala bo'yicha so'xlik deputat bilan gaplashib, masalaga oydinlik kiritgan Achilbay Ramatov tegishli vazirlik va idoralarga ichimlik suvi masalasini bartaraf etish, ushbu ishlarni zimmasiga olgan mas'uliyati cheklangan jamiyatni prokuratura nazoratga olishini, Prezident qarori so'zsiz bajaralishi aytdi.

- Prezidentimiz tomonidan berilayotgan e'tibor tufayli bugun So'x tumani jannatmakon go'shaga aylanib bormoqda. Bizning murojaatimiz ham e'tiborda ekanligidan mamnunmiz va Prezidentimiz boshchiligida yangi O'zbekiston qurilishi yo'lida bor mahorat va kuchimizni berib ishlashga doimo tayyormiz, - deydi deputat.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-05-20 17:13:08